TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА




TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent

https://insurance.tsue.uz

| № | MUNDARIJA | Page |
|---|---|---|
| 1. | *TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich* | 4 |
| 2. | *O‘ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna* | 8 |
| 3. | *ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna* | 12 |
| 4. | *QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo‘chqorov Muslimbek Bobojon o‘g‘li* | 16 |
| 5. | *SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA’MINOTI*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o‘g‘li* | 19 |
| 6. | *SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich* | 24 |
| 7. | *TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich* | 27 |
| 8. | *KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o‘g‘li* | 30 |
| 9. | *XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi* | 33 |
| 10. | *MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o‘g‘li* | 37 |
| 11. | *KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg‘or Nazirovich* | 41 |
| 12. | *XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o‘g‘li* | 44 |
| 13. | *XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi* | 47 |
| 14. | *ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o‘g‘li* | 52 |
| 15. | *XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Mahmudova Go‘zal Samadjon qizi* | 56 |
| 16 | *IQTISODIY O‘SISH BARQARORLIGINI TA’MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)*<br>*Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich* | 61 |
| 17 | *ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ*<br>*Ким Татьяна Валерьевна* | 65 |
| 18 | *ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ*<br>*Рахманов Бекзод Ибрагимович* | 70 |

| | | |
|---|---|---|
| 19 | *TRANSPORT SUG‘URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Rustamov Sherzod Raxmataliyevich* | 74 |
| 20 | *RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG‘URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG‘URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI*<br>*Yakubova Nargiz Tursunbayevna* | 76 |
| 21 | *НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА*<br>*Закирходжаева Ширин Акмаловна* | 80 |
| 22 | *THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY*<br>*Matiyazova Sanobar Rajabbayovna* | 84 |
| 23 | *O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI*<br>*Mirzasalimova Ozoda To‘lqin qizi* | 88 |
| 24 | *O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI*<br>*Baratova Dinora Alisherovna* | 90 |
| 25 | *IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA XIZMAT KO‘RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI*<br>*Ilhom Safarboyevich Shukurov* | 92 |
| 26 | *GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLAPI*<br>*Mamatova Fotima Abdusalomovna* | 96 |
| 27 | *NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug‘ofurov Og‘abek Tolib o‘g‘li* | 99 |
| 28 | *MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI*<br>*Muxiddinov Tal’at Shaydullo o‘g‘li* | 103 |
| 29 | *MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN “XAVFSIZ SHAHAR” LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI*<br>*Iminov Akbarjon Odiljon o‘g‘li* | 106 |
| 30 | *O‘ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI*<br>*Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi* | 110 |
| 31 | *SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI*<br>*Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich* | 113 |
| 32 | *SUG‘URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI*<br>*Xolbayev Azamat Yuldashovich* | 117 |
| 33 | *SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Urozov Komil Bahromovich* | 122 |
| 34 | *ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ»*<br>*Сиддиков Алишер Журақулович, Зокирова Муниса Жамолиддин қизи* | 125 |
| 35 | *TA’LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA’SIRI*<br>*Hamroyeva Dilso‘z Yahyoyevna, Ro‘ziyeva Shaxruza Sherali qizi* | 131 |
| 36 | *XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI*<br>*Isakova Naima Ikromjonovna* | 134 |

| | | |
|---|---|---|
| 37 | *O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI*<br>*Qosimova Hilola Jamshedovna* | 138 |
| 38 | *RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG‘URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI*<br>*Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi* | 143 |
| 39 | *O‘ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH*<br>*Ikramova Nasiba Axmadovna* | 146 |
| 40 | *LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG‘URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Abduturapova Dildora Farxodjon qizi* | 149 |
| 41 | *SUG‘URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI*<br>*Djumaniyazov Shavkat Raximovich* | 151 |
| 42 | *O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI*<br>*Matkarimova Iroda Muxtorovna* | 155 |
| 43 | *YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI*<br>*Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna* | 159 |
| 44 | *O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO‘LGA QO‘YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI*<br>*Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich* | 162 |
| 45 | *O‘ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRTEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI*<br>*Xasanov Umidjon Yusupovich* | 167 |
| 46 | *CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN*<br>*Olimjonov Abbosjon Olimjonovich* | 170 |
| 47 | *ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА*<br>*Холбаева Сабина Рустамовна* | 173 |
| 48 | *TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI*<br>*Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li* | 177 |
| 49 | *MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI*<br>*Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi* | 181 |
| 50 | *KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI*<br>*Aripov Oybek Abdullayevich* | 185 |
| 51 | *ENHANCING THE MECHANISMS OF HIGHER EDUCATION QUALITY ASSURANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL GOVERNANCE*<br>*Rakhimov Olim Khamidovich, Zhang Meimei* | 188 |
| 52 | *TURIZM SUG‘URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODELI VA PARAMETRIK SUG‘URTA ASOSIDA*<br>*Maksudova Umeda Sharifovna* | 194 |
| 53 | *AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR*<br>*Kuldashev Erkin* | 197 |

| | | |
|---|---|---|
| **54** | ***HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI***<br>***Maxamatova Malika Abdurashid qizi*** | **201** |
| **55** | ***MECHANISMS FOR THE USE OF INTELLECTUAL ALGORITHMS IN OPTIMIZING CONSTRUCTION COSTS AND DEVELOPING SERVICE PROVISION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE***<br>***Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich*** | **205** |
| **56** | ***DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI***<br>***Ollokulova Feruza Mansurovna*** | **209** |

# “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI


1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronons: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma’mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasi” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasi dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi assistenti, PhD).




# AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR

**Kuldashev Erkin**
*Andijon davlat texnika instituti,*
*"Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, i.f.n.*
*E-mail:erkinkuldashev@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agrosanoat majmuini raqamli boshqarishning mazmuni, dolzarb muammolari, uning tarkibidagi sohalar faoliyatini takomillashtirish hamda uni samaradorligini oshirish imkoniyatlari kabi masalalar ilmiy ravishda asoslab berilgan.
**Kalit so'zlar:** agrosanoat majmui, raqamli boshqarish, samaradorlik, iqtisodiy mexanizm, marketing, innovatsiya, kontseptsiya, boshqarish tizimi.
**Abstract:** This article scientifically substantiates the essence of digital management of the agro-industrial complex, its current problems, as well as issues of improving the performance of its constituent sectors and opportunities for increasing its efficiency.
**Keywords:** agro-industrial complex, digital management, efficiency, economic mechanism, marketing, innovation, concept, management system.
**Абстрактный:** В данной статье научно обоснованы содержание цифрового управления агропромышленным комплексом, его актуальные проблемы, а также вопросы совершенствования деятельности входящих в него отраслей и возможности повышения его эффективности.
**Ключевые слова:** агропромышленный комплекс, цифровое управление, эффективность, экономический механизм, маркетинг, инновации, концепция, система управления.

**Kirish (Введение/Introduction).**

Jahondagi hozirgi global oʻzgarishlar davrida davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanishi kundan-kunga murakkablashib bormoqda. Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentlararo Ittifoqining 150-Assambleyasidagi nutqida taʼkidlanganidek:

"Tahlillarga koʻra, soʻnggi oʻttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barobarga ortgan. Lekin, afsuski, insoniyatning kambagʻal qatlamlari daromadlari deyarli oʻzgarmagan. Agar bu tendentsiya saqlanib qolsa, 2030 yilga borib dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechiradi. 84 million bola esa taʼlim olish imkoniyatidan mahrum boʻladi.

Oʼz-oʻzidan ravshanki, bu holat iqtisodiyot va jamiyatga katta zarar yetkazadi, ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini zaiflashtiradi, pirovard natijada odamlarning imkoniyatlarini cheklaydi."

Yuqoridagi holat Yangi Oʼzbekistonda roʻy bermasligi uchun mamlakatimizdagi barcha korxona va tashkilotlarda raqamli boshqarishni joriy qilish zarur. Ayniqsa, agrosanoat majmuida va uni sohalarida raqamli boshqarish qoʻllanilishi kerak.

Oʼzbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida munosib oʻrinni egallashga harakat qilib, bozor munosabatlariga oʻtishni tezlashtirmokda. Hozirgi vaqtda agrosanoat majmuida mulkka va mehnatga boʻlgan munosabatlarni tubdan oʻzgartirishni, natijalarni mustaqil tasarruf kilishlarini, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishni turli xoʻjalik yuritish shakllarini yanada takomillashtirishni dolzarb vazifa qilib qoʻymoqda. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlaridan biri - agrosanoat majmuining yadrosi va asosiy boʻgʻini boʻlgan qishloq xoʻjaligidagi yangicha iqtisodiy mexanizmni shakllantirish va uni raqamli boshqarish asosida joriy qilishdan iborat boʻladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Agrosanoat majmuini raqamli boshqarish bugungi kunda qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish, logistika, qayta ishlash va marketing jarayonlariga keng joriy etish orqali boshqaruv sifati yangi bosqichga koʻtarilmoqda. Shu bois mazkur yoʻnalish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar ham xalqaro, ham milliy miqyosda jadallik bilan rivojlanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, qishloq xoʻjaligida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda sunʼiy intellekt va zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish mamlakat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlaridan biri ekanligini taʼkidlagan [1].

Oʻzbekiston Respublikasining **"Raqamli Oʻzbekiston – 2030"** strategiyasi raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish, davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, shu jumladan agrosanoat majmuasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirishning huquqiy va institutsional asoslarini belgilab berdi [2]. Mazkur strategiya qishloq xoʻjaligida elektron platformalar, geoaxborot tizimlari, IoT texnologiyalari hamda raqamli monitoring vositalarini joriy etishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, **2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi**da agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, klaster tizimini takomillashtirish, resurs tejovchi texnologiyalarni keng qoʻllash va boshqaruvning raqamli mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Ushbu strategik hujjat agrosanoat majmuasida raqamli transformatsiyaning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamladi.

Raqobatbardoshlik nazariyasining asoschisi M. Porter hududlar va tarmoqlar rivojlanishida innovatsiyalar hamda texnologik ustunlik hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, zamonaviy boshqaruv tizimlari, raqamli platformalar va innovatsion infratuzilmalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi [4]. Ushbu yondashuv agrosanoat majmuini raqamli boshqarish konsepsiyasining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy olimlar E. Kuldashev va G. Parpiyev viloyat agrosanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini tadqiq etib, klaster boshqaruvida raqamli platformalar, axborot tizimlari va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [5]. Mualliflar klaster ishtirokchilari oʻrtasida axborot almashinuvi va resurslarni boshqarishning raqamli modeli muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydilar.

Berkinov B.B. oʻzining **"Ekonometrika"** asarida iqtisodiy jarayonlarni matematik-statistik modellashtirish usullarini keng yoritadi [6]. Agrosanoat majmuasini raqamli boshqarishda ekonometrik modellar hosildorlikni prognozlash, ishlab chiqarish resurslari samaradorligini

baholash, risklarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish uchun muhim ilmiy vosita hisoblanadi.

E. Kuldashev va G. Akramovaning ilmiy ishida don mahsulotlari klasterini raqamli boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan [7]. Mualliflar raqamli monitoring, elektron logistika, ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn nazorat qilish hamda ma'lumotlar bazasiga asoslangan boshqaruv tizimlari klaster samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatganlar.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi tomonidan tayyorlangan **“Mejdunarodnыy opыt razvitiya tsifrovizatsii v APK”** nomli tadqiqotda Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlarning agrar sohani raqamlashtirish tajribasi chuqur tahlil qilingan [8]. Tadqiqotda davlat tomonidan raqamli infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash, elektron xizmatlar, aqlli dehqonchilik (Smart Farming), sun’iy yo‘ldosh monitoringi va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish agrosanoat tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi isbotlangan.

Kuldashev E.ning **“Raqamli boshqarish”** monografiyasida raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv tizimlarining nazariy asoslari, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlari keng yoritilgan [9]. Muallif raqamli boshqaruvning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish hamda boshqaruv shaffofligini ta'minlashdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, agrosanoat majmuini raqamli boshqarish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar yetarli darajada shakllangan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalarni klasterlar faoliyatiga kompleks integratsiya qilish, sun'iy intellekt, IoT, Big Data va GIS texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ekonometrik baholash, shuningdek, O‘zbekiston sharoitiga mos kompleks raqamli boshqaruv modelini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga hamda agrosanoat majmuasida zamonaviy raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).**

Yangi O’zbekistonda xozirgi tez rivojlanish davrida mamlakatimizni xar tomonlama, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-texnologik sohalarini taraqqiyoti bugungi kunda eng dolzarb masalalar hisoblanadi. Bu dolzarb masalalarni hal qilishning asosiy yo‘llaridan biri – klasterlarni tashkil etish va ularni samaradorli boshqarish zarur. Ayniqsa, agrosanoat majmuini samaradorli boshqarish uchun ularni raqamlashtirish kerak. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-60-79 sonli “Raqamli O’zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizdagi korxona va tashkilotlarni raqamli boshqarishga o‘tkazish belgilangan. Bu vazifalarni samaradorli hal qilishda raqamli boshqarishni o‘rni beqiyosdir. Raqamli boshqarish - bu zamonaviy, ko‘p qirrali, imkoniyatlar darajasi juda yuqori vosita bo‘lib, insonni barcha faoliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Raqamli boshqarish-hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy soxalarning muvoffaqiyatini asosiy me’zoniga aylanmoqda. Olimlar va mutaxassislar o‘rtasida raqamli boshqarish to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Shu sababli, raqamli boshqarishga tadqiqotlarimiz natijasi sifatida quyidagi ta’rifni berishni lozim topdik. “Raqamli boshqarish – bu qo‘yilgan maqsadni marketing, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, xodimlarni faollashtirish asosida optimal natija olishni elektron tizimidir”. Bu ta’rifni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).

Kompьyuter tizimi va tarmoqlari yordamida qo‘yilgan maqsad bajariladi. Bu maqsadni bajarishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu jarayonda qo‘yilgan maqsadga bo‘lgan talab marketing qoidalari asosida aniqlanadi. Aniqlangan talab hajmi innovatsiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, faol xodimlar yordamida raqamli boshqarish amalga oshirilib optimal natija olinadi.




**1-rasm. Agrosanoat majmui tizimida raqamli boshqaruvni tashkil etilishi va uni avtomatlashtirish tizimlari.**[1]

**Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).**

Birinchi rasmdan ko‘rinib turibdiki, agrosanoat majmui tizimidagi ob’yektlar bir-birlari bilan texnologik va mantiqiy bog‘langan. agrosanoat majmui tizimini strukturasidagi ob’yektlarni eng asosiysi bu qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalaridir. Biz ilmiy tadqiqotimizda ilmiy izlanish ob’yektlari sifatida Andijon “Don maxsulotlari” aktsiadorlik jamiyati, Asaka “Don maxsulotlari” aktsiadorlik jamiyati va Qo‘rg‘ontepa “Don maxsulotlari” aktsiadorlik jamiyatlarini tanlab oldik. Bu корщоналарни 2015-2022-yillardagi hisobot va statistik ma’lumotlarini tahlillarini amalga oshirdik. Ilmiy tahlillar natijasida bu korxonalarni iqtisodiy barqaror rivojlanmayotganligini aniqladik. Shu sababli, korxonlarni iqtisodiy barqaror rivojlanish algoritmlarini ishlab chiqdik. Bu algoritm quyidagi formulalardan iborat:

$$M_f = M_q \text{-} O'zx; \quad (1)$$

1-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

- $M_f$ – marjinal foyda miqdori,
- $M_q$ – mahsulotning qiymati,
- $O'zx$ – o‘zgaruvchi xarajatlar miqdori.

$$M_{fn} = \frac{Dx}{Mf}; \quad (2)$$

2-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

- $M_{fn}$ – maxsulotni foydalilik nuqtasi,
- $D_x$ – korxonaning doimiy xarajatlari.

$$M_{brf} = \frac{D_x + F_{br}}{M_f} \quad (3)$$

3-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

- $M_{brf}$ – biznes rejadagi jami maxsulot summasi,
- $F_{br}$ – biznes rejada ko‘zda tutilgan foyda.

$$I_{mn} = \frac{F_{br}}{M_f}; \quad (4)$$

4-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

– $I_{mn}$ – korxonaning iqtisodiy mustahkamlik ko‘rsatkichining miqdori.

$$I_{md} = \frac{I_{mn}}{M_f} * 100\% \quad (5)$$

5-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

- $I_{md}$ – korxonani iqtisodiy mustaxkamlikning darajasi.

$$K_{kj} = \sum_{i=1}^{n} A_{ij} K_{si} \quad (6)$$

6-formuladagi belgilashlarni mazmuni bu yerda:

- $K_{kj}$ $j$ – korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodolovchi
- $k$ - kompleks ko‘rsatkich.
- $A_{ij}$ - $i$ ko‘rsatkichning
- $j$ – korxonadagi miqdori,
- $K_{si}$ - $i$ ko‘rsatkichning $s$ salmoqlik koyeffitsenti.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki klaster tizimi joriy etilgan sohalarda yuqori natijalarga erishilmoqda.

Klaster tizimining nazariyasini asoschisi amerikalik olim Maykl Porterdir.

Yangi O’zbekistonni barqaror va uzuliksiz rivojlantirishda viloyatlarning o‘rni beqiyosdir. Shu sababli, yangi O’zbekistonni asosiy viloyatlaridan biri bo‘lgan Andijon viloyatini tadqiqot ob’yekti sifatida tanlab oldik. Andijon viloyatini xududi yangi O’zbekiston Respublikasining bir foiz yerini tashkil etib, aholisi esa o‘n foiziga tengdir. Andijon viloyatida hozirgi murakkab sharoitda qator muammolar mavjud (ilmiy asoslangan xolatda aholini oziq-ovqat xavfsizligini

[1] Muallif ishlanmasi

taminlash, odamlarga kerakli miqdorda ish o'rinlarini yaratish va boshqalar). Bu muammolarni yechishni asosiy yo'llaridan biri agrosanoat klasterini tashkil etish va uni optimal boshqarishdan iboratdir. Shu sababli, o'rganilayotgan masalamiz bugungi kunda dolzarbdir.

Bozor iqtisodiyoty tizimi o'zining mohiyatiga ko'ra ijtimoiy adolatlidir. Shunga ko'ra uning iqtisodiy mexanizmi ham chuqur moddiy zaminga ega bo'lmog'i darkor, uning moddiy asosini esa ko'shimcha mahsulot tashkil etadi. Bu qoida agrosanoat majmui uchun ham daxldordir.

Ma'lumki, har qanday iqtisodiy taraqqiyot va odamlar farovonligi zaminida yaratilgan ko'shimcha mahsulotni adolatli (unga ko'shgan hissasiga muvofiq) taqsimoti yotadi. Agrosanoat majmui tizimida esa qo'shimcha mahsulot uning birlamchi bo'g'inida - qishloq xo'jalik korxonalarida vujudga keltiriladi. Taqsimot mexanizmidagi kamchilik shundaki, yaratilgan ko'shimcha mahsulotda qaysi bo'g'inning qancha miqdorda hissasi borligini anikdaydigan, ularning o'zlari qo'shgan hissasi ekvivalenti mikdorida ulushini olish iqtisodiy mexanizmi hanuzgacha yaratilmagan.

Taqsimot mexanizmining ilmiy asosga qo'yilmaganligi oqibatida kishloq xo'jaligi korxonalari uning mahsulotini iste'mol qiluvchi agrosanoat majmui bo'g'inlaridan hatto zaruriy mahsulotining ekvivalentini (qiymatini) ololmayotirlar. Ishlab chiqarish bo'g'inlarida moddiy manfaatdorlikning yo'qligidan ularda oddiy takror ishlab chiqarish ham zo'r-bazo'r amalga oshmokda, ish kuchining takror hosil qilinishn esa yomon darajada qolayotir. yaratuvchi bo'g'inlarda tannarx ham qoplanmayotir, ularda iqtisodiy nochorlik, sanatsiyaga tushib qolish kabi noxush holatlar yuz berayotir. Ular mahsulotini iste'mol qiluvchi bo'g'inlar esa foyda olmoqdalar, moddiy manfaat ko'rmokdalar.

Agrosanoat majmui o'zi nima? Agrosanoat majmui – bu bir – biri bilan dialektik va mantiqiy bog'langan to'rtta sohalardan iborat bo'lgan tizimdir. Agrosanoat majmui (ASM)ning birinchi soxasi bu asosiy vositalar – avtomobil, traktor, stanok va boshqa buyumlarni ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalaridir. Ikkinchi soha – markaziy va asosiy bo'g'in – qishloq xo'jaligi bo'lib, u fermer xo'jaliklaridan iboratdir. Uchinchi soha – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalaridir. To'rtinchi soha – infrastrutura, ya'ni ASMga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlardan iboratdir. Infrastruktura ob'yektlari uchta guruxga bo'linadi:

- Bozor infrastrukturasi;
- Ishlab chiqarish infrastrukturasi;
- Ijtimoiy infrastruktura.

Yuqoridagilarni hisobga olib, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun matematik modellar tizimini tuzish kerak. Ular qo'yidagilardan iborat:

- ASMni birinchi sohasini modeli. Bu ASM uchun avtomobil, traktor, stanok va boshqa asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining rivojlanishini matematik modeli;
- ASMni ikkinchi sohasini modeli. Bu fermer xo'jaliklarini optimal joylashtirish va ularni rivojlantirishning matematik modeli;
- ASMni uchinchi sohasini modeli. Bu model qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarining rivojlanishini matematik modeli;
- ASMni to'rtinchi sohasini ya'ni infrastrukturasini modellari. Bular bozorga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy sohalarga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarni rivojlanishini matematik modellari.

Yuqoridagi to'rtta masalalar bir – biriga bog'liq bo'lib, asosini raqamli boshqarish tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'li bizningcha, yangicha iqtisodiy mexanizmni joriy qilishdir. Bu iqtisodiy mexanizmni shakllantirmok uchun eskicha boshqarish usulidan yangicha boshqarishning iqtisodiy usullariga o'tish talab qilinadi. Yangicha boshkarish usullarining asosi esa iktisodiy konunlar va manfaatdorlik tamoyili asosida bo'ladi. Boshqarishni iqtisodiy dastaklari (narx, bank krediti, soliq va boshka to'lovlar) ishlab chiqaruvchi (dexqon, fermer,...)ni mustaqilligi va manfaatdorligi asosida joriy qilinadi.

Demak, iqtisodiyot fanining hozirgi dolzarb masalasi agrosanoat majmui barcha boshqa bo'g'inlari iqtisodiy ahvolini ular tomonidan yaratilgan ko'shimcha mahsulotdagi xissasiga bog'liq qilib qo'yilishiga erishishdir ya'ni, qo'shimcha maxsulotga kim qancha hissa qo'shsa shuncha ulush olishini asoslab berishdir.

Albatta, bunday adolatli iqtisodiy mexanizmni amalda joriy etish qiyin muammo. Buning ilmiy yechimi shundan iborat bo'lishi kerakki, avvalo qo'shimcha mahsulot hajmini aniqlash, unga kim, qaysi bo'g'in ulush qo'shganini aniq hisoblash va ana shu xissaga teng ravishda o'z rag'batini toptirishdan iboratdir.

Raqamli boshqarishni tashkil etishda axborot tizimlarini tashkil etuvchi vosita va resurslardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Rivojlangan horijiy mamlakatlarni tajribalaridan va olimlarning (akademiklar Vosil Qobulov, Murod Sharifhujayev, Nodirbek Yusufbekov, S.S.G'ulomov, F.B. Abutaliyev va boshqalar) tadqiqotlaridan ma'lumki, mamlakat va uning struktura birliklari qanchalik axborotlashtirilgan bo'lsa, unga mutanosib ravishda uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli, ushbu maqolamizni korxonalarni raqamli boshqarish asosida agrosanoat klasterini samaradorligini oshirish masalasiga bag'ishlab, uni tadqiq qilishni maqsad qildik.

Klasterni lug'oviy ma'nosi – bu ma'lum hususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan bir nechta bir xil elementlarni birikmasidir. Shu sababli, yuqoridagi bir – biriga bog'liq soxalar majmui agrosanoat klasterini tashkil etadi.Olimlar va mutaxassislar o'rtasida agrosanoat klasteri to'g'risida yagona fikr yo'q.Shu sababli tadqiqotlarimiz natijasi sifatida agrosanoat klasteriga quyidagicha taьrif berishni lozim topdik. Agrosanaot klasteri - bu qo'yilgan maqsadni amalga oshiruvchi bir-biriga diolektik va texnologik bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi va isteьmolchilariga tayyor maxsulotlarni yetkazib beruvchi tizimdir.

Xozirgi davrda zamonaviy klaster usullaridan foydalanib, agrosanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Bu muhim masalani o'rganishda g'allachilik klasterini markaziy bo'g'ini bo'lgan Andijon "Don mahsulotlari", Asaka "Don mahsulotlari" va Qo'rg'ontepa "Don mahsulotlari" aktsiyadorlik jamiyatlarini tanlab oldik. Bu korxonalarni 2018-2025 yillardagi ma'lumotlarini [1-6] formulalardan foydalanib, qayta ishlaganimizda quyidagi natijalarni oldik.

$K_{k1} = 0{,}27;$ $K_{k2} = 0{,}31;$ $K_{k3} = 0{,}43.$

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, har uchchala korxonalarning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlari ancha past ekan. Bu ko'rsatkichlar qanchalik bir (1,0)ga yaqinlashsa ularning iqtisodiy samaradorligi yaxshilanib boradi.

**Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agrosanoat majmuini raqamli boshqarish qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va mahsulot realizatsiyasi jarayonlariga joriy etish boshqaruvning shaffofligini ta'minlaydi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi hamda tezkor va ishonchli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya siyosati agrosanoat majmuasini zamonaviy boshqaruv tizimiga o'tkazish uchun zarur huquqiy va tashkiliy asoslarni yaratmoqda. Biroq, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi pastligi hamda malakali kadrlar yetishmasligi ushbu jarayonning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli agrosanoat majmuasida raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Takliflar**

- Agrosanoat majmuasi uchun barcha ishtirokchilarni qamrab oluvchi **yagona integratsiyalashgan raqamli boshqaruv platformasi**ni yaratish.
- Yer resurslari, ekin maydonlari va hosildorlikni monitoring qilishda **GIS, sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari va IoT texnologiyalaridan** keng foydalanishni yo'lga qo'yish.
- Fermer xo'jaliklari va agrosanoat klasterlarida **sun'iy intellekt hamda Big Data** texnologiyalariga asoslangan prognozlash va qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish.
- Agrosanoat korxonalari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan **elektron axborot tizimlarini integratsiyalash** va ma'lumotlar bazalarini yagona standart asosida shakllantirish.
- Raqamli texnologiyalarni boshqarish bo'yicha mutaxassislar va fermerlarning **raqamli ko'nikmalarini oshirish** maqsadida muntazam o'quv dasturlarini tashkil etish.
- Agrosanoat majmuasida raqamli texnologiyalarni joriy etayotgan xo'jaliklarni **davlat tomonidan moliyaviy va soliq imtiyozlari** orqali qo'llab-quvvatlash.
- Raqamli boshqaruv tizimlarining samaradorligini baholash uchun **ekonometrik modellar va statistik monitoring** mexanizmlarini amaliyotga keng tatbiq etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi agrosanoat majmuasida boshqaruv samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot sifatini

yaxshilash hamda tarmoqning milliy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. 2025, 4-5 aprelь.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079 farmoni, 2020 yil 5 oktyabr. Toshkent sh.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent 2022-yil 28-yanvar.
4. Porter.M.E.Development strategies for the 21st century social progres and competitive growth//Social Progress imerative,...Polf-2013
5. Kuldashev E.,Parpiyev G. “Yangi O’zbekistonda viloyat agrosanoat klasterini rivojlantirish strategiyasi” - F.: “FarPIni ilmiy jurnali”, 2021y 1-son.
6. Berkinov B.B. Ekonometrika, T. : “Fan va texnologiya”, 2015y.
7. Kuldashev E,Akramova G. “Don maxsulotlari klaster tizimini raqamli boshqarish-agrosanoat majmui rivojlanishining asosidir” AndMI, Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya 27-29-oktyabr 2022 yil, Andijon.
8. Mejdunarodnыy opыt razvitiya tsifrovizatsii v APK: gosudarstvennaya podderjka, regulirovaniye, praktika, YeEK, 101 s.
9. Kuldashev E. Raqamli boshqarish, monografiya. ADTI, 2025-yil